



Mavzu: O'zbekistonda paxta ishi va uning oqibatlari

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi
Islamova S

islamova.sau@gmail.com



SSSR va O'zbekiston SSR siyosiy rahbariyatidagi o'zgarishlar

- Mamlakat siyosiy hayotida 1982 – 1985-yillarda ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy rahbariyatdagi bunday o'zgarishlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi
- 1982-yil noyabrda KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi **Leonid Brejnev** vafot etdi. U mamlakat va partiyani 18 yil davomida boshqargan edi. 1982 – 1984-yillarda **Yuriy Andropov**, 1984 – 1985-yillarda **Konstantin Chernenko** Sovet Ittifoqiga rahbarlik qildi. 1985-yil 11-martda **Mixail Gorbachyov** KPSS MK Bosh sekretari, 2-iyulda **Andrey Gromiko** SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimlariga saylandi. 1985-yildan mamlakatda qayta qurish siyosati boshlandi.



XX asrning 80-yillariga kelganda sovet rejimi, uning siyosiy tizimi va xo‘jalik yuritish usullari o‘zining rivojlanish imkoniyatlarini tugata boshladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti katta xomashyo va tabiiy boyliklar zaxirasiga ega bo‘lishiga qaramasdan SSSRning markaziy hududlaridan ancha ortda qola boshlagan. Ana shunday sharoitda O‘zbekistonning o‘sha paytdagi siyosiy rahbariyatida iroda, qat’iy jur’at, Sovet Ittifoqi doirasida respublika tutgan mavqeyini ochiq-oydin aytib o‘tish uchun mardlik yetishmadi.



R. Nishonov



Paxta ishi – sovet rejimining O'zbekistondagi so'nggi qatag'on siyosati.



- O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo'lgan. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi mash'um rol o'ynadi. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zbekistonda o'zbek xalqini asossiz badnom qilish kompaniyasini boshlab berdi. Plenumda Moskvadan maxsus yuborilgan KPSS MK sekretari Y.K.Ligachev va boshqalar qatnashib, Kreml ko'rsatmalari izchillik bilan bajaralishini talab qilishgan



Atamalar izohi:



- **Internatsionalizm** – Xalqlar va ijtimoiy guruhlarning millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o‘zaro hamkorlik tamoyili.
- **Partokratik** – partiya hukmronligiga asoslangan.



Savol va topshiriqlar:



- Nima uchun “qayta qurish” siyosati barbod bo‘ldi?
- O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga qancha bo‘ldi? O‘zbek tilining bunday maqomga ega bolishi qanday imkoniyatlarni yaratdi?
- Farg‘ona fojialarining boshqa hududlarga ham tarqalishiga nimalar sa- bab bo‘lgan?